



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### BOSHQARUVGA OID KOMPETENSIYALARНИ SHAKLLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI AHVOLI

Muhammadiyev Hojiakbar Asliddinovich

Jizzax viloyat yuridik texnikumi kafera mudiri

#### Annotatsiya:

Ushbu tezisda davlat boshqaruvida kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati va shakllari, foydalari va zararlari haqida bir qancha ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Bundan tashqari boshqaruvdagi kompetensiyaning jamiyatdagi ahvoli haqida ham bir batafsil ma`lumotlar berib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Boshqaruv, kompetensiya, davrda boshqaruv samaradorligi, menejment texnologiyasi

### THE ACTUAL SITUATION OF THE FORMATION OF MANAGEMENT COMPETENCES

Muhammadiyev Hojiakbar Asliddinovich

Jizzakh regional legal technical school, head of the cafe

#### Abstract :

In this thesis, some information about the importance and forms, benefits and harms of the formation of competence in public administration is presented. In addition, detailed information about the state of management competence in the society has been given.

**Keywords:** Management, competence, management efficiency, management technology.

O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasining “Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish”, deb nomlangan 1.2.bandida Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi hamda davlat xizmati tizimini isloh qilish



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

vazifasi belgilangan. Bu boradagi amaliy ishlar sirasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi PQ-3755-sonli “Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida istiqlolli boshqaruv kadrlarining tizimli asosda tanlab olinishini ta’minlash, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat va boshqa davlat organlari, tashkilotlari tizimida ularning kasbiy malakasini uzlusiz oshirib borishga ko‘maklashish maqsadida har 3 yilda istiqlolli boshqaruv kadrlarni tanlab olish bo‘yicha “Taraqqiyot” respublika tanlovi o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Qarorga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi “Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlash bo‘yicha “Taraqqiyot” respublika tanlovi finali ishtirokchilari orasidan boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1018-sonli qarori qabul qilingan.

Bu O‘zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish va tahlil qilish, istiqlolda davlat organlari va tashkilotlarining malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishning samarali usullarini joriy etish imkonini beradi. Boshqaruv kadrlarining o‘zini o‘zi rivojlantirish tizimi bo‘yicha bugungi kunda Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarda chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, rossiyalik olimlar tomonidan yuzlab darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya, lug‘at, modullar va turli ilmiy ishlanmalar chop ettirib kelinmoqda.

### Hozirgi davrda boshqaruv samaradorligi:

- tashkilotning boshqaruvchanlik darajasining xarakteristikalari, uning boshqaruvchi tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga javob berish tezligi va shakli;
- boshqaruv organining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari va rejalashtirilgan natijalariga erishganlik darjasи;
- boshqaruv samaradorligi quyidagilarga bog‘liq:
- menejmentning boshqaruv salohiyati (rahbarlarning kasbiy va shaxsiy xususiyatlari);
- boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi;
- tashkilotda ishlaydigan kommunikativ jarayonlarning diagrammasi;
- tashkilotni boshqarish uslubi;



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- menejment texnologiyasi (boshqaruv ta'sirining funksiyalari, usullari va shakllari majmui);
- tashkiliy madaniyat;

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Uch yil davomida ijtimoiy-iqtisodiy sohaning ustuvor yo‘nalishlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha 30 dan ortiq konsepsiya va strategiya qabul qilindi. Kelgusi besh yil davomida yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minalash bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi. Davlat boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlar boshqa sohalardagi islohotlar muvaffaqiyatining garovidir. Ma’muriy islohotlar konsepsiysi ijrosi doirasida 12 ta yangi davlat organlari tashkil etildi, 20 ta vazirlilik va idoralarning faoliyati tubdan o‘zgartirildi. Kelgusi besh yilga yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minalash, sanoat tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi, yalpi ichki mahsulotni qariyb ikki barobarga oshirish – 58 milliard dollardan 100 milliard dollargacha va aholining hayot darajasini oshirish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali davlat boshqaruvisiz amalga oshirish mumkin emas.

Prezident O‘zbekiston demokratik taraqqiyot yo‘lini qat’iy davom ettirishini, Konstitutsiyada bu maqsadga erishish kafolatlari yanada kuchaytirilishini ta’kidladi. “Bizga inson va biznesning og‘irini yengil qiladigan, ularga sifatli xizmat ko‘rsatadigan ixcham va samarali boshqaruv tizimi kerak.

Ma’muriy islohotlarni aynan shu maqsadda boshladik. Birinchi bosqichda hukumat va vazirliklar ixcham qilinib, ularning ish uslubi o‘zgartirildi. Navbatdagi vazifamiz viloyat va tuman darajasida ham boshqaruv sifatini oshirishdan iborat. Mening eng katta niyatim — odamlarni qiyayotgan muammolarni mahallaning o‘zi yechadigan xalqchil tizim yaratish”, — dedi davlat rahbari.

Xulosa o‘rnida bugungi yangilanishlar sharoitida milliy- madaniy an’analaramizni hisobga olganda ham boshqaruvda gumanistik tamoyillarga keng yo‘l ochish orqali fuqarolarda mustaqil fikr, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlikning bo‘lishi qanchalik ahamiyatli ekanligini yaxshi bilamiz.

Shuning uchun ham yangi avlod rahbarlariga, boshqaruvchilariga qo‘yiladigan talablar, ular xulqidan kutiladigan sifatlar jamiyatda sog‘lom insoniy munosabatlarning barqarorlashuvi, sog‘lom raqobat va o‘zaro bag‘rikenglik, lekin ishda o‘ziga va hamkasblariga nisbatan talabchanlikni taqozo etadi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova B.M., X aytov O.E., Umarova N.Sh. Boshkaruv so\asidagi professional kompetensiya asoslari: Monografiya. / Prof. V.M. Karimova taxriri ostida. / Prof. V.M. Karimova taxriri ostida. — T.: “Fan va texnologiya”, 2008. - B. 37—40.
2. Egorshin A.P. Xodimlarni boshqarish [Matn]: darslik. qo‘llanma / A.P. Egorshin / N. Novgorod: NIMB, 2001 yil.
3. Zaykina K.A., Yunusboeva V.F. Xodimlarni boshqarishning rasmiy va norasmiy usullari jamoada mahsuldarlikni oshirish usuli sifatida [Elektron manba]: Elektron ilmiy va amaliy davriy "Iqtisodiyot va jamiyat" soni 2 (11) (2014 yil aprel -iyun) / [Elektron resurs] - Kirish rejimi. - URL: [http://iupr.ru/domains\\_data/files/zurnal\\_11/Zaykina%20K.A.%20\(sovremennye%20tehnologii%20upravleniya%20organizacyay\).pdf](http://iupr.ru/domains_data/files/zurnal_11/Zaykina%20K.A.%20(sovremennye%20tehnologii%20upravleniya%20organizacyay).pdf)
4. Kuznetsova A.R., Yagafarova V.A. Ta'lim mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili sifatida // Oliy ma'lumot bugun // - 2013. - No 1. - S. 31-33.
5. Atamuratov Murat Utepbergenovich, I.Karimov nomidagi TDTU prorektori, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida boshqaruv kadrlarining o‘zini o‘zi rivojlantirish tizimini joriy etish” 29.01.2022.